



**RESEARCH OF NONVERBAL COMMUNICATION IN WORLD
LINGUISTICS.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10115974>

Yakubjonova is the daughter of Rozikhan Mirkomil
Andijan State Institute of Foreign Languages
Teacher of the Department of English Language and Literature

ANNOTATION

In everyday life, a person communicates with relatives and friends using verbal and non-verbal means. To date, research on non-verbal communication has been carried out by many scientists. This article talks about the processes of how the human mind perceives non-verbal communication.

Key words

non-verbal communication, body language, proxemics

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA NOVERBAL MULOQOT TADQIQI.

Yaqubjonova Ro'zixon Mirkomil qizi
Andijon davlat chet tillar institute
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Inson kundalik turmush tarzida yaqinlari, do'stlari bilan verbal, noverbal vositalardan foydalanib muloqotda bo'ladi. Bugungi kunga qadar noverbal muloqotga bo'lgan izlanishlar ko'plab olimlar tomonidan olib bormoqdi. Ushbu maqolada insonlar ongi qay tarzda noverbal muloqotni qabul qilish jarayonlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

noverbal muloqot, body language ya'ni tana tili, proksemika

Muloqot insonlar o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunish vositasi bo'lib, uning verbal, noverbal, ko'rgazmali va yozma kabi turlari mavjud. Verbal muloqot inson his-tuyg'ulari va kechinmalarini eshituvchiga tushunarli tarzda yetkazib beruvchi eng qulay vosita bo'lsa-da, noverbal muloqot verbal muloqot bilan birgalikda, bir-birini to'ldirgan xolatda ishlatiladi. Lekin so'zlovchining his-tuyg'ulari axborot yetkazayotgan paytda yaqqol ko'rinib turmaydi, lekin so'zlovchi noverbal muloqotdan foydalanganda hissiyotlarini yashira olmaydi. Bundan tashqari body



language ya'ni tana tili verbal muloqotdan ko'ra ancha ishonchli hisoblanadi va tana tili orqali berilayotgan xabarlar so'zlovchining haqiqatlarini ochib bera oladi. Bundan tashqari, ayollar va erkaklarning muloqot jarayoni ham turlicha. Misol uchun, erkaklarning miyyasi bir vaqtda faqatgina bitta tomoni ishlasa, ayollarda erkaklardan farqli o'laroq, bir vaqtning o'zida miyyasining ikkala yarim shari ishlaydi va ular erkaklarga qaraganda ko'roq ma'lumot qabul qila oladi. Inson kimnidir ishontirishi uchun so'zlari va xarakatlari o'zaro mutanosib kelishi kerak. Chunki tana xarakatlari beradigan ma'lumot doimiy o'zgarmasdir. Shuning uchun ham og'aki bo'lmagan muloqot inson muloqotining katta qismini egallaydi. "Tana tilining kuchi" asari muallifi Tonya Reimanning fikriga ko'ra, inson kimnidir birinchi marotaba uchratganda o'sha insonning jozibadorligi, yoqimtoyli, malakasi, ishonchliligi kabi fikrlari 100 millisekundda paydo bo'ladi va bu ma'lumotlar noverbal muloqotga asoslangan bo'ladi. Xamisha kimnidir uchratganimizda, miyyamiz ularning hayotidan kichik nusxa oladi va o'sha insonga nisbatan bizning miyyamizda ma'lum bir surat paydo bo'ladiki, bu surat uning shaxsiyatini 100% tasvirlaydi. O'sha fikrlarimizga tayangan xolda ularga ishonsa bo'ladimi yoki yo'q qaror qilamiz va miyyamizda birinchi taassurot paydo bo'ladi. Bularning barchasi albatta noverbal muloqot tufaylidir. Muloqot paytida ongli ravishda miyya dekodlashga qaratilgan signallarni qabul qiladi. Biror kishi yolg'on gapirayotgan paytda ularning tanasi beixtiyor tinglovchiga ogohlantiruvchi turli xil signallar yuboradi.(Ekman). Inson tanasi qanday xarakter qiladi, qanday ifodalanadi, qanday o'tirishi yoki turishi, gapirish tezligi, hattoki taqinchoqlarning turi, sochinig uzun yoki qisqaligi bularning barchasi tinglovchiga ma'lumot berishga ximat qiladi(Feldman va Rime) Noverbal muloqot belgilari ikki turga bo'linadi:vokal va vizual. Ovoz balandligi, tezligi, tempi bular vokal noverbal muloqotning belgilari hisoblanadi. Bunga kulish, yiglash xo'rsinish kabilar kiradi(Neulip). Vizual noverbal muloqot belgilariga esa, imo-ishoralar, qo'l va qo'l xarakterlarini o'z ichiga olgan kinesika, oyoq xarakterlari, yuz ifodalari va xolati kiradi(Neulip). Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, kimdir bizga noto'g'ri ma'lumot berayotgan paytda miyyamizga o'sha ma'lumot to'g'ri emasligi haqida signallar keladi. Miyya xujayralarida "neyron oynasi" deb nomlanuvchi "oltinchi sezgi" mavjud bo'lib, insonga bilimlarini almashishga, tasviriy san'atni o'rgatishga, jang qilishni, raxm shavqatni his etishimizga yordam beradi. Inson yolg'on gapirayotganda duduqlanishi, ko'zini boshqa tarafga olib qochishi, yoki terlab ketishi oltinchi sezgi orqali qabul qilingan signallar orqali qabul qilinadi. Reymanning fikricha "Tana tili biz berayotgan signallarni boshqa insonlar tushunib qaror qilishi uchun muhim omildir". Inson o'zini xavfsiz his etganda, miyya xavfsizlik signallarini atrofga yoyadi. Ba'zi signallar kishi asab tizimiga mahkam bog'langan, boshqalari esa, ota- onalaridan o'tgan yoki millat madaniyatiga bog'liq

bo'ladi. Noverbal muloqot paralinguistikaning tarkibiga kiruvchi asosiy componenti hisoblanadi. Paralinguistic vositalarga oid dastlabki izlanishlar 1644 yili Angliyada D.Bulverning "Nutq va muloqot qiluvchi imo-ishora harakatlarini ifodalovchi qo'lning tabiiy tili va xronologiyasi" nomli asarida tadqiq qilingan. Keyinchalik Charlz Darvinning "Insonlar va hayvonlar emotsiyasi ifodalari" asari noverbal muloqotga bo'lgan qiziqishni ortirib yubordi. So'nggi yillarda body language ya'ni tana tili nevrologik jihatdan ham Undan so'ng bir qator olimlar: Pol Ekman, Edvard T.Xoll, Albert Mehrabian, Debora Tannen, Rey Birdwistell kabi olimlar izlanishlar olib borishdi. Pol Ekman yuz ifodalari, his-tuyg'ular va aldash bo'yicha tadqiqot olib bordi. Edvard T. Xoll, antropolog olim, tana tili va muloqotdagi madaniy farqlarni o'rgangan. Albert Mehrabian, mashhur psixolog, hissiyotlar va munosabatlarni yetkazishda og'zaki bo'lmagan ishoralarning muhimligini ta'kidlagan muloqot modelini ishlab chiqdi. Debora Tannen, tilshunos olim, jins va muloqot uslublari va ularning munosabatlarga ta'sirini o'rgangan. Rey Birdwistell, antropolog olim, kinesika, tana harakati va aloqani tahlil qilish tizimini ishlab chiqdi.

Rus olimi I.Yakovlevning fikricha noverbal muloqotning komponentlari quyidagi 9 ta guruhga ajratilgan:

- 1.Kinesika (tana harakati).
- 2.Vokalika (paralingvistika, ovozning akustik xususiyatlari).
- 3.Fizik xarakteristika (gavda qismi shakli, o'lchami, soch rangi).
- 4.Xaptika (tana qismiga teginish).
- 5.Proksemika (joylashuv manzili).
- 6.Xronomika (vaqt).
- 7.Artefakt (kiyinish, bezanish, kosmetika).
- 8.Olfaktika (hid bilish).
- 9.Estetika (musiqa, rang).

Noverbal muloqotda Albert Mehrabianning izlanishlari diqqatga sazovordir. U yuzma-yuz muloqotda uchta asosiy element mavjud deb hisoblaydi: og'zaki bo'lmagan xatti-xarakatlar(masalan yuz ifodalari), ovoz ohangi va og'zaki so'zning tom ma'nosi. Mehrabianning ta'kidlashicha, bu uchta muhim element biz boshqa odamlarga o'zimizning munosabatlarimiz ya'ni yoqtirishimiz yoki yoqtirmasligimizni qanday yetkazishimizni anglatadi. Mehrabian 1960-yillarda bu boradagi dastlabki nazariyalarini ishlab chiqdi. 1967 yilda o'tkazgan ikkita tajriba natijalariga tayanib, u 7-38-55% aloqa qoidasini shakllantirdi. Mehrabianning umr bo'yi faoliyati va izlanishlari ko'plab turli fanlarga ta'sir ko'rsatgan va psixologiya sohasiga katta hissa qo'shgan. Faoliyat mobaynida tanqidlarga duch kelganiga qaramay, uning nazariyalari va modellari ko'plab turli sohalarda katta ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda.



FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR:

M.A.Qurbonov “Noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar” Andijon 2021.

Bakhodirov, O., & Rahmanova, G. (2023). AI AND LANGUAGE LEARNING DISABILITIES. Innovative research in modern education, 1(9), 7-10.

Nematovna, R. G. (2022). GENERAL OVERVIEW OF RECENT CHANGES IN ENGLISH TEACHING PROGRAMS IN TURKEY. British View, 7(1).

Rahmanova, G., & Yangın Ekşi, G. (2023). FORMING A CULTURE OF COMMUNICATION IN THE FAMILY: PROBLEMS AND STRATEGIES. B INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (T. 3, Выпуск 11, сс. 42–45). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10077788>

Rahmanova, G., & Ekşi, G. (2023). English-Medium Instruction in Higher Education in Uzbekistan: Views on Effectiveness, Career Prospects and Challenges. World Journal of English Language, 13(5).

Rahmanova, G. LANGUAGE PROCESSING IN BILINGUAL SPEAKERS.